



HUMAN CAPITAL AND SOCIO-ECONOMIC POVERTY: A SOCIOCULTURAL ANALYSIS

Muhriddin Mahamadaminovich Sodirjonov

PhD in Sociology, Acting Professor

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: human capital, socio-economic poverty, sociological analysis, sociocultural factors, society, social policy.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: This article analyzes the complex interrelationship between socio-economic poverty and human capital from sociological and sociocultural perspectives. The main purpose of the study is to determine the impact of poverty on human capital and to examine the mechanisms of its formation within social and cultural contexts. The article considers socio-economic poverty not merely as material deprivation, but as a multifaceted factor influencing the development of human capital through social institutions, family structure, education, and healthcare systems.

The study demonstrates methods of analyzing poverty in integration with human resources, including their skills, knowledge, and health status, based on sociological and sociocultural approaches. Moreover, the article scientifically explains how social and cultural factors — the system of societal values, stereotypes, civic engagement, and the sociocultural environment — affect the level of human capital development.

The findings indicate that effective strategies aimed at developing human capital and reducing poverty should not be limited to economic measures alone, but must also incorporate social, cultural, and sociological factors in a comprehensive manner. The results of the study serve as a scientific and practical basis for shaping social policy, developing human resources, and ensuring societal stability.

INSON KAPITALI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY KAMBAG‘ALLIK: SOTSIOMADANIY TAHLIL

Muhriddin Mahamadaminovich Sodirjonov

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), v.b. professor

Namangan davlat univeristeti

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: inson kapitali, ijtimoiy-iqtisodiy kambag‘allik, sotsiologik tahlil, sotsiomadaniy faktorlar, jamiyat, ijtimoiy siyosat.

Annatatsiya: Ushbu maqola ijtimoiy-iqtisodiy kambag‘allik va inson kapitali o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni sotsiologik va madaniy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kambag‘allikning inson kapitaliga ta’sirini aniqlash, uning ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanish mexanizmlarini o‘rganishdir. Maqolada ijtimoiy-iqtisodiy kambag‘allikni faqat moddiy cheklovlar sifatida emas, balki ijtimoiy institutlar, oilaviy struktura, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi orqali inson kapitali rivojlanishiga ta’sir etuvchi kompleks omil sifatida ko‘rib chiqiladi.

Maqolada sotsiologik va sotsiomadaniy yondashuvlar orqali kambag‘allikni inson resurslari, ularning malaka, bilim va sog‘liq holati bilan integratsiyalashgan tarzda tahlil qilish usullari ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy va madaniy faktorlar, xususan, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi, stereotiplar, fuqarolik faolligi va sotsiomadaniy muhit inson kapitalining rivojlanish darajasiga qanday ta’sir qilishi ilmiy asoslarda yoritiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inson kapitalini shakllantirish va kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha samarali strategiyalar faqat iqtisodiy choralar bilan cheklanmay, balki ijtimoiy, madaniy va sotsiologik faktorlarni kompleks hisobga olish orqali amalga oshirilishi mumkin. Maqola natijalari ijtimoiy siyosat ishlab chiqishda, inson resurslarini rivojlantirishda va jamiyatning barqarorligini ta’minlashda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕДНОСТЬ: СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ

Мухриддин Махамдаминович Содирджонов

Доктор философии (PhD) по социологическим наукам, и.о. профессора

*Наманганский государственный университет
Наманган, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: человеческий капитал, социально-экономическая бедность, социологический анализ, социокультурные факторы, общество, социальная политика.

Аннотация: В данной статье анализируется сложная взаимосвязь между социально-экономической бедностью и человеческим капиталом с социологической и социокультурной точек зрения. Основная цель исследования — выявить влияние бедности на человеческий капитал, а также изучить механизмы её формирования в социальном и культурном контексте. В работе бедность рассматривается не только как материальное ограничение, но и как комплексный фактор, влияющий на развитие человеческого капитала через социальные институты, семейную структуру, систему образования и здравоохранения.

В статье раскрываются методы анализа бедности в интеграции с человеческими ресурсами, их навыками, знаниями и состоянием здоровья, основанные на социологических и социокультурных подходах. Кроме того, научно обосновывается воздействие социальных и культурных факторов — системы ценностей общества, стереотипов, гражданской активности и социокультурной среды — на уровень развития человеческого капитала.

Результаты исследования показывают, что эффективные стратегии формирования человеческого капитала и снижения бедности должны учитывать не только экономические меры, но и социальные, культурные и социологические факторы в их комплексном единстве. Выводы статьи могут служить научно-практической основой при разработке социальной политики, развитии человеческих ресурсов и обеспечении устойчивости общества.

Kirish. Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy maqsadi har bir shaxs o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, sog‘lom, ijodiy, sifatli ta’lim va faol hayot kechirishdan iborat. Inson kapitalini rivojlantirish Yangi O‘zbekiston strategiyasining markazida bo‘lib, 2030-yilgacha kambag‘allikka barham berish va umumiy farovonlikni tezlashtirish bo‘yicha maqsadlarimizga yerishish yo‘lidagi harakatimizning inklyuziv, barqaror iqtisodiy o‘sishga ko‘maklashish va

rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish barqarorligini mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlarimizning ajralmas qismidir.

Prezident Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida ko'tarilib, mazkur mavzu ijtimoiy-siyosatning asosiy kun tartibiga aylandi. Unga ko'ra, "biz O'zbekistonning yangi tarixida ilk bor kambag'allikni kamaytirish haqidagi qat'iy qarorimizni butun dunyoga ochiq e'lon qildik va uni qisqartirish bo'yicha keng qamrovli ishlarni boshladik"[1. – B. 51]. Buning uchun esa, "aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ruyobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir"[2]. O'zbekiston Respublika kambag'allikdan farovonlik sari davlat dasturida hududlarda aholi turmush shart-sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarining natijadorligiga erishishda yangicha yondashuv va to'plangan milliy tajribani qo'llash chora-tadbirlarini yanada yuqori bosqichga olib chiqish [3] muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 11 sentyabr kuni kambag'allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Bu yo'nalish mamlakatimizda 2020 yilda boshlangan edi. O'shanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambag'allik chegarasiga yetmasdi. O'tgan yillarda 3,5 million odamni daromadli qilish orqali 2023 yil yakuni bilan kambag'allik darajasi 11 foizga tushdi. Avvalo, ijtimoiy himoya qamrovi 4,5 karra kengaytirilib, o'tgan yili 12,3 trillion so'm yo'naltirildi. Pensiya va nafaqalar miqdori ham 1,5 baravar ko'paytirildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, kambag'allikni faqat pul tarqatish, nafaqa to'lash bilan hal qilib bo'lmaydi. Buning uchun kambag'al oila a'zolarini o'qitish, kasbga o'rgatish va ish bilan ta'minlash muhim. Bugungi kunda korxonalarda 250 mingta vakant bor. Lekin, kambag'al oilalarning 35 foiz ishga layoqatli a'zolarida bilim va ko'nikma kam. Yana ayrimlari surunkali kasalliklar tufayli tayinli ishlay olmayapti. Kambag'al oilalarning 83 foizida tomorqa bor, lekin suv, elektr va yo'l bilan bog'liq muammolar qiyinchilik tug'dirayapti.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish", buning uchun "kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish"[4] kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi. Shu bilan birga, davlat rahbari Sh.Mirziyoev birinchi marta mamlakatimizda kambag'al aholi qatlami borligini, ular "aholining taxminan 12-

15 foizini, ya'ni 4-5 million kishini tashkil etishini" ta'kidlaydi. Shu asosida "xalqaro tashkilotlar bilan birga kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqish hamda bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish vazifasini belgilab berdi"[5]. Mazkur vazifalar kambag'allikni qisqartirishga doir yangicha yondashuvlar asosidagi tadqiqotlarga ehtiyojni yanada ortirib yubormoqda.

O'zbek tilining izohli lug'atida "kambag'al" so'zi "kam, yetishmaydigan, hayotiy tirikchilikka zarur narsalarning yetishmaslik holati, yo'qchilik yoki muhtojlikda yashamoq" ma'nolari qayd etilgan[6. – B. 306]. Shunigdek, BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklolarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy iqtisodiy nazariya otasi hisoblangan Adam Smit: "Kambag'allik inson tabiati yoki odat bo'yicha talab qilinadigan ehtiyojni sotib olishga qurbi yetmasligidir",[8] – deb ta'rif beradi. U ta'rifda jamiyat odatlari keltirib chikargan ehtiyojlarni ham e'tiborga olish orqali kambag'allik zahirida nisbiylik elementi ham mavjudligiga ishora qiladi, biroq o'sha davrlarga xos tarzda moddiy ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini ko'rib chiqish bilan cheklanadi.

kambag'allik bu – insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasizligidir[9. – B. 579].

Tadqiqotchilar R.Xasanov va B.Usmonovlarining tadqiqotlarida quyidagicha fikrlar keltiriladi: "O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash haqida gapirganda, turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag'allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtai nazardan, qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan, muhtoj odamlarga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yoki natura tarzida yordam ko'rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo'ladi. Albatta, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur, ammo kambag'allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda, unga qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar o'zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o'zlarini zarur daromadlari bilan ta'minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin[10]" deb ta'kidlab o'tishadi.

Illinoys universitetining antropologiya professori O. Lyuis 50-yillarda Lotin Amerikasidagi qashshoq oilalarning hayot tarzini o'rganib, quyidagi xulosaga keldi: doimiy ehtiyoj sharoitida yashovchi qashshoq aholi tabaqalari o'zlarining qadriyatlari, qarashlari va barqaror xulq-atvor modellarini shakllantiradilar, ular ijtimoiy jihatdan meros bo'lib qoladi va kambag'allikni takrorlashga yordam beradi[11]. An'anaviy semantika doirasida kambag'allikda yashash - muvaffaqiyatsizlikni anglatadi, kambag'allik doimiy taqqoslash va norozilik asosida shakllangan hayot va ong sifatida belgilanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy adabiyotlarda kambag'allik fenomenini aniqlashga oid uchta asosiy konseptual yondashuv mavjud bo'lib, ularning har biri kambag'allikni o'rganishning o'z metodologiyasiga ega[12]

Tahlil va natijalar. Absolyut yondashuv ingliz sotsiologlari S. B. Rauntri va Ch. Butning asarlarida rivojlantirilgan. Sotsiologlar ijtimoiy tabaqalarning hayot sharoitlarini amaliy o'rganish bilan shug'ullanishgan va kambag'allikni evolyutsiyaning salbiy oqibati deb hisoblashgan. Masalan, Ch. But kambag'allikning ijtimoiy jihatdan belgilangan ko'rsatkichlarini, masalan, daromad darajasi, asosiy ehtiyojlarni qondirish, mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan qoidalar va qadriyatlarni aniqlashga harakat qilgan.

Absolyut kambag'allik konsepsiyasiga ko'ra, qashshoqlar deb pul resurslarining yetishmasligi sababli hatto asosiy ehtiyojlarni qondira olmaydigan fuqarolar (oilalar) hisoblanadi. Shunga ko'ra, kambag'allik chegarasidan pastda qolganlar (ya'ni, ma'lum qoidalar asosida hisoblangan minimal iste'mol savatining narxidan kam daromadga ega bo'lgan fuqarolar) qashshoqlar deb topiladi (B. Rauntri asos solgan qoidalar asosida)[14. – C. 21.].

Ilmiy adabiyotlarda turli xil iste'mol byudjetlari, masalan, fiziologik minimum, yashash minimumi, minimal iste'mol byudjeti va yuqori daromadli byudjet kabi tushunchalar muhokama qilingan[15. – C. 11.].

Bu yondashuv fuqaroning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun mablag' yetishmasligini emas, balki qo'shnida bu shaxsga qaraganda ko'proq moddiy resurslar mavjudligini anglatadi. Sotsiologiyada nisbiy kambag'allik tushunchasi shaxsning o'rtacha daromaddan past daromad olish holati sifatida tushuniladi, bu esa uning asosiy ehtiyojlarni qondira olishi yoki olmasligidan qat'iy nazar.

Ushbu konsepsiyaning chegarasi shuni ko'rsatadiki, fuqaro yoki oila eng yuqori daromadga ega bo'lgan guruhlarining hayot standartlariga nisbatan qanchalik qashshoq ekanligini aniqlaydi. Shunday qilib, nisbiy kambag'allik konsepsiyasiga ko'ra, o'lchash ob'ekti sifatida o'rtacha daromad darajasidan past bo'lgan aholi qatlami ko'rib chiqiladi[16. – C. 132-139.].

Sub'yektiv yondashuv kambag'allik darajasini o'lchashda respondentlarning o'z moddiy ahvoli haqidagi shaxsiy baholariga asoslanadi. Kambag'allik darajasini o'lchashning boshqa yondashuvlari ham mavjud. Masalan, stratifikatsion yondashuv nuqtai nazaridan (M. Weber, E. Giddens va boshqalar) kambag'allik jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning namoyon bo'lishi, ijtimoiy tabaqalarning daromad darajasi va turmush tarzi, imtiyozlarning mavjudligi yoki yo'qligi bo'yicha bo'linishi sifatida ko'rib chiqiladi.

Sotsiologiya nuqtai nazaridan, kambag'allik chizig'ini yashash minimaliga bog'lash ixtiyoriy hisoblanadi. Shubhasiz, kambag'allik ijtimoiy limologiya (lotincha limes – chegaradan) fenomenidir. Pyer Burdye yozishicha: "Sotsiologiya ijtimoiy topologiyani ifodalaydi. Shunday qilib, ijtimoiy dunyoni differentsatsiya va taqsimot tamoyillari asosida qurilgan ko'p o'lchovli fazo shaklida tasvirlash mumkin"[17]. Odamlar turli ijtimoiy makonlarni hosil qiluvchi chegaralarni chizish (saqlash, o'zgartirish, himoya qilish va boshqalar) bilan shug'ullanadilar. Bu chegaralarni chizish faoliyati ijtimoiy limologiya deb ataladi. Kambag'allik – bu ushbu faoliyat tomonidan chizilgan ijtimoiy makondir.

Sotsiomadaniy yondashuvga ko'ra, kambag'allikning asosida himoyasiz aholi tabaqalariga xos bo'lgan madaniyat yotadi. Kambag'allikni o'rganayotgan N. Latova kambag'allik fenomenining madaniyatini ko'rib chiqadi, bunda odamlarning qashshoqligining manbai shaxsning o'zi, ya'ni uning xulq-atvori va qadriyatlari hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qashshoqlar o'z qashshoqligida o'zlari aybdor. Ma'lumki, hozirgi vaqtda mintaqalar aholisining katta qismi kambag'allik chegarasida yoki "ijtimoiy tub" chegarasiga yaqin joylashgan.

Bu, ayniqsa, kuchli tabaqalanish fonida yaqqol seziladi, bunda qashshoqlar va boylar o'rtasidagi daromadlar farqi o'nlab, yuzlab va minglab baravar farq qiladi. Ba'zan ekologik jihatdan xavfli miqyosda iste'mol o'sib bormoqda, buning sababi esa ishlab chiqarishning o'sishi, daromadlarning ko'payishi, oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa barcha insoniyat tomonidan iste'mol qilinadigan mahsulotlar miqdorining o'sishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Mintaqaviy ijtimoiy ongda kambag'allikning sabablari va omillarini o'rganish muammosiga e'tibor qaratilishi, kambag'allikning o'zi aholining hayot darajasi va sifatini pasaytiradigan salbiy omil bo'lishi bilan izohlanadi[18. – C. 282-285.].

Kambag'allik muammosi bir tomondan, ishsizlik, past ish haqi, sog'liq holati va boshqalar kabi ob'yektiv omillarga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Ikkinchi tomondan, esa, dangasalik, alkogolizm, giyohvandlik, zarur ta'limning yo'qligi va shaxsning o'z farovonligini oshirish uchun qat'iyat bilan ishlashni istamasligi kabi sub'yektiv omillarga bog'liq[199. – C. 67-72.]. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan kambag'allikni tushuntirish umumiy madaniyat maydonida mavjud bo'lgan, lekin haqiqiy tashuvchilarga tegishli bo'lmagan ma'lum "qadriyatlar nuqtalari"

yoki submadaniy mini-universallarni aniqlashga qaratilgan. Bunday tushuntirishlar ilmiy adabiyotlarda yaxlit konsepsiya shaklida yetarlicha ifodalangan emas. Madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan kambag'allikni tushuntirish odamlarning turmush tarzi ularning oilada va jamiyatda tarbiyalanishi va ular ijtimoiylashish jarayonida o'zlashtirgan qadriyatlarning natijasi ekanligini nazarda tutadi. Natijada, odamlar qanday qilib o'zlarining vaziyatlari va atrof-muhit bilan kurashishlari kerakligini belgilaydigan madaniyat shakllanadi. Bu madaniyat keyin bir avloddan ikkinchisiga o'tadi.

Madaniyatning kambag'allikka ta'sirining birinchi darajasi qadriyatlar tizimidagi ijtimoiy harakatchanlik to'siqlari bilan bog'liq. Xususan, ko'pgina sharq madaniyatlari gender jihatidan tengsizlikni targ'ib qilish orqali qashshoq aholining ahvolini yanada og'irlashtiradi. Irqiy, milliy va diniy jihatdan kamsitish ham shunga o'xshash ta'sirga ega.

Ikkinchi daraja ta'sir kambag'allik submadaniyatining shakllanishi va tarqalishi jarayonida amalga oshadi, bu esa qashshoq aholining odatiy turmush tarzi bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, bu kambag'allikning institut sifatidagi chegaralarini belgilovchi asosiy omildir. Doimiy ravishda kambag'allik holatida yashovchi shaxslar, odatda, jamiyatda qabul qilingan yondashuvdan farq qiladigan o'ziga xos turmush tarzini shakllantiradilar. Uning xususiyatlari turli tsivilizatsiyalar, madaniy turlar va boshqalarga qarab farq qilishi mumkin, ammo bunday xulq-atvor turining asosiy xususiyati - kambag'allikning o'ziga xos belgilarini aks ettiruvchi me'yorlar, qadriyatlar va stereotiplarning mavjudligidir.

Bu borada madaniyat va kambag'allik submadaniyati kabi o'xshash tushunchalarni farqlash muhimdir. Chet el va mahalliy ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar har doim ham aniq ajratilmaydi. Ba'zan ular sinonim sifatida ishlatiladi va quyidagicha yoziladi: madaniyat (submadaniyat) kambag'allik. Shunga qaramay, bu tushunchalar o'rtasida sezilarli farq mavjud.

Kambag'allik madaniyati – bu jamiyatning ko'pchiligi kambag'allikka nisbatan shakllantirgan qadriyatlar, qarashlar va baholarning majmuasidir. Ma'lum jamoalarda qadriyatlar tizimi shakllanadi, bu esa hayotga taqdirga ishonish nuqtayi nazaridan yondashishga asoslanadi. Ushbu tizim uzoq muddatli rejalarga emas, balki hozirgi ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan. Masalan, maktabni tashlab, birinchi imkoniyat paydo bo'lishi bilan malakasiz ishlarga joylashishga harakat qiladigan yosh yigitni ko'rib chiqish mumkin. U aniq maqsadlarga ega emas, bu esa barqaror va munosib maoshli ish topish imkoniyatini pasaytiradi.

Oxir-oqibat, madaniy tushuntirishlar shuni anglatadiki, kambag'allikni yo'qotish uchun har bir shaxsda tashabbuskorlik, tirishqoqlik va tejamkorlik kabi xarakter xususiyatlarini shakllantirish lozim. Shu bilan birga, davlat qashshoq aholi xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi va

ularga beriladigan ijtimoiy yordamni (masalan, ijtimoiy sug'urta) kamaytirishi kerak degan qarash ham mavjud.

Kambag'allik faqat daromadning past darajasi bilan cheklanib qolmaydi. U o'ziga xos hayot tarzi, nasldan-naslga o'tuvchi xulq-atvor normalari va maxsus psixologik xususiyatlar bilan ham tavsiflanadi. Ushbu tadqiqot doirasida kambag'allik submadaniyatini ajratish muhim ahamiyatga ega. Madaniyatdan farqli ravishda, kambag'allik submadaniyati – bu qashshoqlarga xos bo'lgan qadriyatlar, e'tiqodlar va baholar majmuasi bo'lib, quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: a) haddan tashqari tajovuzkorlik va dushmanlik; b) kuch va tenglik madaniyatini ulug'lash; d) shaxsiy kambag'allikda boshqalarni ayblash va e) muvaffaqiyatga o'zgacha nuqtayi nazar.

Kambag'allik submadaniyatini tahlil qilishda, qashshoq qatlamni umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishdan ajratish va uni o'ziga xos qadriyatlar bilan tavsiflash muhimdir. Ushbu submadaniyatning asosiy tarkibiy qismlari Paternalizm (davlat yoki boshqalarga qaram bo'lish), Qaramlik va nochorlik, Mehnat va iqtisodiy faollikka past motivatsiya va Rejalashtirish qobiliyatining sustligi (kelajakka ishonchsizlik)dan iborat

Madaniyatdan farqli o'laroq, kambag'allik subkulturasida – bu qashshoqlarning o'ziga xos qadriyatlar, e'tiqodlar va baholar to'plami bo'lib, ularga haddan tashqari tajovuzkorlik va g'azablanish, kuch va tenglik kulti, o'z shaxsiy muammolarida boshqalarni ayblash, hayotdagi muvaffaqiyatni o'ziga xos tushunish kabi xususiyatlar xosdir.

Umuman olganda, ushbu hodisani tushunishning ikkita asosiy va eng keng tarqalgan modelini aniqlash mumkin. Birinchi model kambag'allik subkulturasida alohida qadriyatlar tizimi sifatida qaralishi fikriga asoslanadi, uning asosiy xususiyatlari tartibsizlik, patologiya va keng tarqalgan ijtimoiy institutlarda past darajadagi ishtirok etishdir. O.Lyuisning kontseptsiyasida subkultura “hayot tarzi sifatida tushuniladi, bu oilaviy nasl orqali avloddan avlodga o'tib, insonning hayot tarzi bilan birga yashashini ta'minlaydi va paydo bo'ladigan muammolarni hal qilishning muayyan usullarini shakllantiradi”[20]. Bu yerda shaxs sotsializatsiya jarayonida guruh normalarini o'zlashtiradi va o'z qashshoqligiga qarshi kurashishga to'sqinlik qiluvchi individual “psixososyal profil”ni shakllantiradi.

Qashshoqlar o'zlarining hayot tarzini – kambag'allik madaniyatini ishlab chiqadilar, bu madaniyat kristallashadi va avloddan avlodga o'tadi, chunki ular bunday sharoitlarda yashashga majbur bo'ladilar. Kambag'allik madaniyati normalarini o'zlashtirish sotsializatsiya jarayonida sodir bo'ladi, “olti va yetti yoshli ‘xarobalar bolalari’ odatda o'z subkulturasining asosiy qadriyatlarini va qarashlarini o'zlashtirib, psixologik jihatdan o'z holatini o'zgartirish uchun

qulay imkoniyatlardan va imtiyozlardan to'liq foydalanishga tayyor bo'lmaydilar"[21. – P. 188]. Ushbu kontsepsiya doirasida qashshoqlar o'z hayotlari uchun mas'uliyatli bo'lib qoladilar.

Kambag'allik subkulturasidan so'z borganda, qashshoqlar qatlamini umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmadan ajratib olish va unga o'ziga xos qadriyatlar bilan sifatlash zarur. "Kambag'allik subkulturasini"ning asosiy elementlari orasida paternalizm, qaramlik, nochorlik, faol iqtisodiy va mehnat faoliyatiga past motivatsiya, teskari yo'nalish (inversiya) va rejalashtirishga qodir emaslik (kelajakka ishonchsizlikning yo'qligi) kabi aqliy xususiyatlarni qayd etish mumkin.

AQSh va Buyuk Britaniyadagi kambag'allikni o'rganuvchi sotsiolog-tadqiqotchilar subkultural va tizimli omillarning kambag'allikka ta'sirining ustuvorliklarini taqqoslash mumkinligini aniqladilar va kambag'allik subkulturasini nazariyasining deterministik xarakterga ega emasligini, balki kambag'allik hodisasini tushuntiruvchi boshqa tahlillar bilan o'zaro bog'liqligini va umumiy kambag'allik nazariyasiga integratsiyalashganligini ta'kidladilar[22. – P. 33].

G'arbiy Yevropa va AQSh davlatlarida, shuningdek, Rossiyada kambag'allik ostidagi sinf (anderklass) bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlar kambag'allikning o'ziga xos subkulturasining mavjudligini isbotladi. Bu subkulturaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida kambag'allikdagi hayot tarzini individual qabul qilish va undan orqada qolish, shuningdek, tegishli shaxsiy xususiyatlar va xatti-harakat reaksiyalarini ishlab chiqish ko'riladi.

Shuningdek G'arb olimlarining sotsiologik tadqiqot "...oilani shakllantirish va uning faoliyati uchun ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning etarli emasligi aholining qayta ishlab chiqarilishi va yangi avlodning ijtimoiylashuvi buzilishiga olib keladi degan xulosalarni uchratamiz. Ko'p bolali oilalar va yagona onalar yuqori qaramlik darajasi va ijtimoiy himoyaning zaifligi tufayli ko'pincha qashshoqlar guruhiga kiradilar. Shu bilan birga, jamiyat fikrida o'rtacha me'yordan ortiq bolali oilaning jozibador bo'lmagan tasavvuri shakllanadi. Qashshoq aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash imkoniyati cheklangan, chunki buning uchun zarur bo'lgan tibbiy preparatlar va xizmatlarga kirish qiyin. Qashshoqlar qatlami uchun marginalizatsiya, viktimizatsiya, salbiy devyatsiyalar va jinoyatchilikning tarqalishi xosdir.

Bizning fikrimizcha, "kambag'allik subkulturasini" atamasini qo'llash qashshoqlar sotsial-iqtisodiy guruhi ichida shakllanadigan kichik guruhlar haqida gapirganda to'g'riroq va mosroq bo'ladi. Subkultura haqida so'z yuritganda, guruh o'ziga xos guruh o'zligini anglashi, guruh a'zolarining guruhga mansubligi hissi va boshqa bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadigan jamoani ko'zda tutish lozim. Bu umumiy qadriyatlarning shakllanishi, ularning uzatilishi va shu orqali o'z subkultural tizimini saqlab qolish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Masalan,

qashshoqlar guruhi doirasidagi kichik guruhlar subkulturasiga misol sifatida tilanchilar yoki uysizlar subkulturasini ko‘rib chiqish mumkin.

Kambag‘allikni takror ishlab chiqarish mexanizmi bilan bog‘liq holda, vaqtinchalik va doimiy kambag‘allikni ajratish zarurati yuzaga keladi. Haqiqatan ham, kambag‘allikning vaqt chegaralari turli omillarga qarab sezilarli darajada farqlanishi mumkin.

Qisqa muddatli kambag‘allik omillari ba‘zi guruhlarini ma‘lum bir vaqt davomida odatiy hayot tarzidan chiqarib yuborishi mumkin. Ammo bu holat ularning irsiy kambag‘allikka duchor bo‘lish xavfini anglatmaydi.

Iqtisodiy fan doirasida kambag‘allikning doimiy chegaralarini aniq belgilovchi ishonchli mezonlar hali aniqlanmagan. Ammo aniq bir narsa shuki, kambag‘allikning vaqt chegaralari asosan quyidagi ikki holatga bog‘liq:

1. Ijtimoiy harakatchanlikni yo‘qotish.
2. Yashash darajasini oshirishga motivatsiyaning pasayishi.

Qachonki inson kambag‘allik submadaniyatiga xos bo‘lgan normalar va qoidalarini o‘zlashtirsa, u holda kambag‘allik doimiy tus olishi mumkin. Shu sababli, kambag‘allikning doimiyliigi odamning o‘zini yuqorida tasvirlangan ijtimoiy-madaniy fenomenlarga bog‘lash darajasiga qarab shakllanadi.

Kambag‘allik subkulturasini iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, uning mavjudligi imkoniyatlari bo‘yicha bir qator tanqidiy nuqtalar mavjud. Xususan, qashshoqlar guruhining turlicha (geterogen) xususiyatini hisobga olsak, kambag‘allik subkulturasiga haqida gapirish qiyin, chunki uning qadriyatlarini ushbu subkultural jamoaning barcha a‘zolari qabul qilmaydi.

Bundan tashqari, qashshoqlar guruhi sotsial-iqtisodiy guruh sifatida (o‘z ta’rifi bo‘yicha) relyativistik xususiyatga ega, chunki butun aholidan oldindan belgilangan mezon – moddiy farovonlik darajasiga mos keladiganlar ajratib olinadi.

Kambag‘allik subkulturasini nazariyasining “zaif joyi” shundaki, u ko‘pincha amalda talabga ega emas, chunki uning cheklanganligi sababli oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar va tizimlar samarasiz bo‘lib chiqadi. Kambag‘allik subkulturasini nazariyasidagi ushbu cheklovlar ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda kambag‘allikni kamaytirishning ijtimoiy-madaniy omillari			
Omil turi	Omil	Ta’rifi	Qashshoqlikni kamaytirishga ta’siri

Ijtimoiy omillar	Ta'lim va malaka	Aholining ta'lim darajasi va kasbiy malakasi.	Yuqori malakali ishchi kuchi, yuqori daromadli kasblarni egallash imkoniyat
	Ijtimoiy harakatchanlik	Odamlarning ijtimoiy tabaqalar o'rtasida harakatlanish imkoniyati.	Qashshoqlikni kamaytirish, ijtimoiy adolatni oshirish.
	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordam dasturlari.	Aholining xavfsizligi, iqtisodiy qashshoqlikni kamaytirish.
	Sog'liqni saqlash tizimi	Aholining sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati.	Sog'lom ishchi kuchi, kasalliklar tufayli qashshoqlikning oldini olish.
	Migratsiya	Aholining bir joydan boshqa joyga ko'chishi (ichki yoki tashqi migratsiya).	Migrantlarning pul o'tkazmalari orqali qashshoqlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish.
Madaniy omillar	Ijtimoiy institutlar va qadriyatlar	Oilaviy munosabatlar, ijtimoiy ishonch, hamkorlik madaniyati.	Jamiyatdagi iqtisodiy faollikni oshirish, tadbirkorlik rivojiga hissa qo'shish.
	Ta'limga bo'lgan munosabat	Ta'limni qadrlash va uni rivojlantirishga intilish.	Yuqori malakali ishchi kuchi, qashshoqlikni kamaytirish.
	Gender tengligi	Ayollar va erkaklarning teng huquqli va imkoniyatli bo'lishi.	Ayollarning ish joylarida faol ishtiroki, oilalarning daromadini oshirish, qashshoqlikni kamaytirish.
	Hamkorlik va jamoat ruhi	Jamoa va fuqarolik jamiyatining faolligi.	Ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, qashshoqlikni kamaytirishda jamoatning roli.
Texnologik omillar	Axborot texnologiyalari	Internet, mobil aloqa va boshqa texnologiyalarning rivojlanishi.	Yangi ish o'rinlari yaratish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini yaxshilash, qashshoqlikni kamaytirish.

O'zaro ta'sir	Raqamli tarmoqlar	Raqamli platformalar orqali bilim va resurslarni almashish.	Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, kamaytirish.	qashshoqlikni
	Innovatsiyalar va texnologiyalar	AKT, masofaviy ta'lim va ish imkoniyatlari, raqamli iqtisodiyot.	Rivojlanayotgan sohalar	yangi ish o'rinlarini yaratish.
	Madaniyat va institutlar	Madaniy qadriyatlar va davlat institutlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir.	Shaffof korrupsiyani kamaytirish, qashshoqlikni samaradorlik.	boshqaruv, kamaytirishda
	Globalizatsiya va madaniy almashinuv	Turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri va globalizatsiya jarayonlari.	Yangi shakllantirish, kamaytirishda xalqaro tajribalardan foydalanish.	qadriyatlarni qashshoqlikni
	Migratsiya va urbanizatsiya	Qishloqdan shaharga ko'chish, ishga joylashish imkoniyatlari.	Ish bilan ta'minlanish, infratuzilmalar rivoji, ko'rsatish sohasining kengayishi.	xizmat

Kambag'alliklikning mavjudligi ijtimoiy hodisa bo'lib, islohotlarning samarasiga bog'liq bo'ladi. Yangi ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy inqirozli sharoit kambag'alliklikning u yoki bu ko'rinishini keltirib chiqaradi. Yuzaki qaraganda kambag'alliklik sub'ektning o'ziga bog'liqligi, nochor ahvolda kun kechirishida kishining o'zi aybdordek tuyuladi. Albatta, har bir kishi va oila o'z farovonligi uchun javobgardir. Lekin, buning uchun jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va amaldagi huquqiy qonun-qoidalar kishi faoliyatini har tomonlama keng ochib berishga qodir bo'lishi kerak. Bu qoidalar ichida eng muhimi erkinlikdir.

Xulosa. Kambag'allik insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmasligi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligini anglatadi. oilasini boqishi va kiyintirishi, ta'lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligini anglatadi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy islohotlarning izchillik bilan amalga oshirilishi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish imkonini beradi. Aniq maqsadga yo'naltirilgan, ijtimoiy siyosatni olib borish va ijtimoiy sohani rivojlantirish bozor islohotlari hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirishning ustuvorligi asosida ijtimoiy nafaqalarning qamrov darajasi kamida ikki marotaba oshirilib, ularni tayinlash jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun avtomatlashtirilgan elektron tizim joriy etildi. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlami va kambag'allik holatiga tushish xatari yuqori bo'lgan aholi bilan manzilli ishlash mexanizmini yo'lga qo'yish maqsadida "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari yaratildi.

Bizningcha, kambag'allik – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan muhim muammo bo'lib, sotsiologik tadqiqotlarda keng o'rganiladi. Kambag'allikni o'rganish, uning sabablari, oqibatlari va ijtimoiy ta'sirlarini tushunishga yordam beradi. Absolyut va nisbiy kambag'allik(absolyut kambag'allik – bu insonning asosiy ehtiyojlarini qondira olmasligi. Nisbiy kambag'allik esa, odamning jamiyatdagi boshqa odamlar bilan solishtirganda iqtisodiy ahvolidan yomonligini anglatadi).

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yhati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти, 2021. – Б. 51.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси (2020 йил 24 январь). <https://nrm.uz/contentf?doc>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi 143-sonli Farmoni, 23.09.2024.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўljалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60 Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь. // "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь.
6. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент.: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" ДИН. 2006. –Б. 306.
7. Камбағаллик ва қашшоқлик ўртасида қандай фарқ mavjud? <https://uz/news/2021/01/02/kambagallik-va-qashshoqlik-ortasida-qanday-farq-mavjud>
8. Smith A. An enquiry into the nature and causes of the wealth of nations. – London: Methuen & Co., Ltd. 1776

9. Узаков К.П. Камбағалликни қисқартиришда аҳоли бандлигини таъминлаш масалалари. Academic Research in Educational Sciences. Volume 2 | ISSUE 10 | (2021), –Б. 579-594
10. Хасанов Р., Усмонов Б. Ўзбекистонда камбағаллик ва уни қисқартириш йўллари. 06.03.2020 й.
11. <https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambagallik-va-uni-qisqartirish-yollari>
12. Lewis, Oscar. Five families: Mexican case studies in the culture of poverty. London: Souvenir press, 1975.
13. Овчарова Л. Н. Теоретические и практические подходы к оценке уровня, профиля и факторов бедности: российский и международный опыт. М.: М-Студио, 2009. [URL: <https://rrsociology.ru/journal/article/1580/>].
14. Каира Ю. В. Бедность как фактор социальной ответственности безработных в современном российском обществе: автореф. ... дис. канд. социол. наук. Тула, 2006. – С. 21.
15. Слободенюк Е. Д. Бедные в современной России: структура группы и социальная динамика: автореф. дис. ... канд. социол. наук. М., 2014. – С. 11.
16. Кошарная Г. Б., Каримова Л. Ф. Основные подходы к измерению уровня бедности в современной России // Общественные науки. Социология. 2013. № 3. С. 132-139.
17. Бурдые П. Социология социального пространства. М.: Институт экспериментальной социологии. СПб.: Алетейя; 2007. 288 с.
18. Рожнова Т. М. Проблемы бедности как социального явления // Современные проблемы регионалистики: сб. науч. статей III-и Мерцаловские чтения, Орёл, 20 июня 2017 г. Орёл: Изд-во Среднерусского института управления – филиала РАНХиГС, 2017. С. 282-285.
19. Богданова В. П. Факторы российской бедности // Современные проблемы науки и образования. 2015. № 1. С. 67-72.
20. Lewis, Oscar. La Vida. New-York: Random House, 1966. P. 19.
21. Lewis, Oscar. Culture of Poverty // On Understanding Poverty: Perspectives from the Social Sciences, ed. Daniel Patrick Moynihan. New-York: Basic Books, 1968. P. 188
22. Morris, L. Dangerous Classes (Text)/L; N.Y.: Routledge.1994. P.33.